DOI 10.5281/zenodo.8402510

Matmuratova Gulnoza Bahtiyarovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti o`qituvchi
gulnozamatmuratova1988@gmail.com

MEVACHILIK VA UZUMCHILIKNING XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI

Annotation: Horticulture is one of the main sectors that determines the economy of the Republic of Uzbekistan and brings a lot of income. Without developing this industry on a scientific basis, it is impossible to satisfy the demand for fruit products of the population and our industry. Therefore, it is necessary to thoroughly study agricultural sectors, including horticulture, to find out what problems have occurred and to find a positive solution to them.

Respublikamiz aholisi moddiy farovonligi o‘sishi bilan ularning meva mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlari ham oshib bormoqda, chunki mevalar (ho‘l va quritilgan holatlarda) inson salomatligi uchun zarur bo‘lgan to‘yimli, mazali va shifobaxsh oziqdir. Shu bois yil davomida aholining mevaga bo‘lgan talabini ta’minlash bu – davr talabidir. Bog‘dorchilik qishloq xo‘jaligi tarmog‘i bo‘lib, fan sifatida meva daraxtlarining morfologik tuzilishi, o‘sishi, rivojlanishi, ko‘paytirish usullari, hosil berish qonuniyatlari hamda parvarishlash texnologiyasini o‘rgatadi. Yuqorida ko‘rsatilgan bilimlarning egallanishi agronom, fermer mutaxassisi bo‘lib shakllanishlarida katta ahamiyat kasb etadi va agrotexnik chora-tadbirlarni yuqori darajada va o‘z vaqtida o‘tkazishga yordam beradi.

Bog‘dorchilik sohasi – biologiya, biotexnologiya, tuproqshunoslik, o‘simliklar fiziologiyasi, melioratsiya, agrokimyo va umumiy dehqonchilik tarmoqlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Meva daraxtlari va tok tuplarini parvarishlash texnologiyasi shu fanlar bilan aloqadordir.

Uzumchilik «mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri. Markaziy Osiyo respublikalarida, xususan, O‘zbekistonda uning roli, ayniqsa, katta. O‘zbekistonning qulay tabiiy sharoiti bu yerda xilma-xil nav uzum yetishtirishga imkon beradi. Tok qimmatbaho o‘simlik hisoblanadi. Uning mevalari juda mazali va foydalidir. Uzum mevasining tarkibida 15–30 foiz shakar, sovitilganda esa 40–50 foizgacha organik kislotalar, pektin, oshlovchi, xushbo‘y hidli va bo‘yoq moddalar, o‘simlik yelimi, bir qancha fermentlar A, B, C vitaminlar va mineral tuzlar bo‘ladi. Uzum tarkibida yaxshi o‘zlashtiriladigan shakar (glyukoza va fruktoza), orga nik kislotalar va boshqa moddalar bo‘lishi va tarkibiy qismlarining bir-biriga mos ravishda birikkanligi tufayli ular davolash xususiyatiga ega. Uzum mevalaridan har xil maqsadlar uchun foydalaniladi. Uzum yangiligicha ko‘p ishlatiladi. O‘zbekiston tuproq-iqlim sharoitida undan iyun oyidan boshlab noyabrgacha foydalaniladi. Tashishga chidamliligi va muzlatgichlarda hamda maxsus ombor larda uzoq saqlanishi tufayli uzum yangiligicha kelgusi yilning may oyida ham iste’mol qilinadi. Uzum oziq-ovqat va vino sanoati uchun juda qimmatbaho xomashyodir. Yangi uzumdan murabbo, kompot, marinadlar tayyorlanadi. Uzum suvi tegishlicha tayyorlanganda eng yaxshi to‘yimli parhez va shifobahsh mahsulotlar sifatida ko‘p oylar davomida saqlanishi mumkin. Uzumdan quritilgan qimmatbaho mahsulotlar: urug‘li xo‘raki navlaridan mayiz, urug‘siz navlardan kishmish, juda mayda (6–9 mm) urug‘siz qora mevali korinka nav uzumdan quritilgan korinka olinadi. O‘zbekistonda ko‘plab kishmish, mayiz esa kamroq tayyorlanadi. Korinka butunlay tayyorlanmaydi. Uzumdan har xil vinolar jumladan, shampan vinosi tayyorlanadi. Iste’mol qilinadigan vinolardan uzum sirkasi tayyorlanadi. Uzum turidan spirt, vino kislotasi, tanin moddasi, uzum moyi, bo‘yoqlar, yoritgich gaz va boshqalar olinadi.

https://wordlyknowledge.uz

Tok yana shu bilan qimmatliki, u erta (o‘tqazilgandan so‘ng ikkinchi – uchinchi yili) hosilga kiradi.

Dunyo bo‘yicha, shu jumladan, O‘zbekistonda tok tuplari, asosan, jinsiy (urug‘idan) va vegetativ yo‘l bilan ko‘payadi. Urug‘idan ko‘paytirish seleksiya ishlarida qo‘llaniladi. Amaliyotda vegetativ yo‘l (qalamchasidan, yashil qalamchasidan, payvandlab, parxishlab) bilan ko‘paytiriladi. Tok urug‘idan ko‘paytirilganda navning belgi va xususiyatlari o‘zgarib, ko‘pincha yovvoyi shakliga qarab ketadi, kech hosil beradi. Vegetativ ko‘paytirishda tok qayta tiklanish (regeneratsiya) xususiyatiga ega. Tok organlarining qayta tiklanishi bir xil emas. Masalan, ildiz bo‘lagi, barg bandi, to‘pgul bandi, ildiz chiqarishi mumkin, ammo ularda kurtaklar yo‘qligidan novda rivojlanmaydi. Qayta tiklanish jarayoni navning biologik xususiyatlari, novdaning yoshi, undagi oziq moddalarining miqdori, tuproq namiligi va unumdorligi kabi omillarga bog‘liq.

Tok qalamchalardan ko‘paytirilganda bo‘lg‘usi organlar qutblilik asosida, ya’ni qalamchaning yuqori tomonidan novdalar, pastki tomonidan ildiz hosil qiladi. Regeneratsiya yaxshi pishgan bir yillik novdaning o‘rta qismidan olingan qalamchalardan yaxshi o‘tadi.

Tokni parxishlab ko‘paytirishda uning zang, madang, yashil va yarim yashil qismlaridan foydalaniladi. Parxishning tik, yotiq, yer osti, yer usti kabi usullari bor. Tokni payvandlab o‘stirish qadimdan ma’lum. Xitoyda bundan besh ming yil ilgari qo‘llanganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bor. Payvandlash, ayniqsa, tokning sovuqqa chidamli navlarini yetishtirishda, nav sifatini yaxshilashda, vegetativ duragaylash yo‘li bilan yangi navlarni yaratishda qo‘llaniladi.

Adabiyotlar ro`yhati:

1.«Bog‘, tokzor va sabzavot-poliz ekinlarini zararkunanda hamda kasalliklardan himoya qilishga oid spravochnik». – Toshkent, Uzdavnashr. – 1962, 318–337-bet.

2. Bo‘riyev X. «havaskor bog‘bonga qo‘llanma». – Toshkent. «Sharq» NMAK. – 2002, 208-bet.

3. Mirzayev M. va boshqalar. «Bog‘ va tokzorlardan yuqori hosil olish omillari». – Toshkent. – 1998, 21-bet.

4. Mirzayev M.M., Sobirov M.K. «Bog‘dorchilik va tokchilik». – Toshkent, O‘qituvchi. – 1975, 190-bet.

WORDLY KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz